



TERI TANOSIL KASALLIKLARI: SO'ZAK KASALLIGINING KECHISHI

Axundjanova Ziyoda Xadjimuratovna

Tulyaganova Kamola Shakirovna

OlmAliq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada teri tanosil kasalliklari va ularning bemorlarda kechishi, so'zak kasalligi misolida tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *yuqori imunitet, so'zak, teri qichishi, virusli kasalliklar, yuqumliyluk darajasi, dizenfeksiyalash.*

Teri kasalliklari – odam va hayvonlar organizmidagi shilliq qavatlar, teri hamda uning hosilalari (soch, tirnoq) patologik o'zgarishi bilan ifodalanadigan kasalliklar guruhi. Odam uchraydigan Teri kasalliklari toshma toshishi, dog', pufakcha, tuguncha, qipiqilanish, yaralanish, terining shilinishi, yorilishi va boshqa tarzida namoyon bo'ladi. Tashqi muhitdagi har bir fizik va kimyoviy omillar terida turli yallig'lanishlar (dermatitlar) paydo bo'lishiga olib keladi; bulardan qavarish, bichilish, sovqotish, kuyish birmuncha ko'proq uchraydi. Terining talaygina kasalliklariga biologik omillar, mikroskopik zamburug'lar (qarang Terining zamburug'li kasalliklari), bakteriyalar, hayvon parazitlari (qarang Qo'tir) va viruslar (qarang So'zak, Uchuq) sabab bo'ladi. Ichki omillar: mahalliy, infeksiya o'chog'i bo'lishi (mas., murtak bezlari, qovuqda), ichki a'zolar (me'da, buyrak, jigar) kasalliklari ekzema, eshakem kabi allergik tavsifdagi (qarang Lglergiya) Teri kasalliklariga olib kelishi mumkin. Organizmda oqsil, uglevod va yog' almashinuvining buzilishi, shuningdek, vitaminlar yetishmasligi, nerv (mas., neyrodermit) va endokrin sistema faoliyatining buzilishi (mas., seboreya, husnbuzar), tomirlar, qrn yaratish a'zolari va boshqalarning zararlanishi natijasida ham Teri kasalliklari yuzaga kelishi mumkin. Bularning hammasi terida yallig'lanish, qon quyilishi, pigmentatsiya va muguzlanishning buzilishi, teridagi ayrim tuzilmalar (biriktiruvchi to'qima tolalari, yog va ter bezlari, soch piyozchasi va boshqalar)ning nobud bo'lishi, qon aylanishi hamda teri oziklanishining izdan chiqishi kabi patologik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bunda teriga har xil kattalikda toshmalar toshishi (dermatozlar), tugunchalar paydo bo'lishi, ba'zan bu tugunchalar ichida qon yoki yiring tuplanishi mumkin. Toshmalar qichishishi, achishishi, ba'zilar bemorni mutlaqo bezovta qilmasligi mumkin. Infeksion (qarang Ich terlama, Qaytalama terlama, Skarlatina, Chechak va b.), shuningdek, venerik kasalliklarda ham teriga toshmalar toshishi kuzatiladi. Toshmalar tabiatini



faqat mutaxassis vrach to'g'ri aniklab, diagnoz qo'yishi va davo tayinlashi mumkin. O'z bilgicha davo qilish turli ko'ngilsizliklarga olib keladi. Shuning uchun Teri kasalliklariga xos dastlabki alomatlar paydo bo'lganda, albatta, vrachga murojaat etish va uning maslahatlariga bekamu kust amal qilish lozim.

So'zak, gonoreya, tripper – gonokokklar qo'zg'atadigan yuqumli venerik kasallik. Ko'pincha, tasodifiy jinsiy aloqa qilish oqibatida kelib chiqadi. Kasallik, asosan, jinsiy yo'l bilan yuqqanligi uchun aksariyat siydik chiqarish kanali va jinsiy a'zolar zararlanadi. Infeksiya manbai S. bilan og'rigan erkak yoki ayol. Jinsiy aloqada gonokokklar jinsiy a'zolar va siydik chiqarish kanalining shilliq qavatiga tushib, uni yallig'lantiradi. Ba'zan kasallik bemor ishlatgan buyumlar (sochiq, mochalka, kurpa-tushak, kiyim-kechak va boshqalar) dan foydalanganda ham yuqishi mumkin. Chunonchi qizlarga kasallik bemor onadan o'tadi; bunga jinsiy a'zoldan tashqari, ko'z (qarang [Blennoreya](#)) va og'iz shilliq pardalarining S. oqibatida yallig'lanishi sabab bo'lishi mumkin. Kasallik alomatlari, odatda, S. yuqqanidan so'ng oradan 3–5 kun o'tgach paydo bo'ladi. S. bilan kasallangan erkaklarda siydik chiqarish kanalining oldingi qismi yallig'lanadi, achishadi, qiziydi va og'riydi, siyganda og'riq zo'rayadi; siydik chiqarish kanalining tashqi teshigi qizarib, shishadi; torayib qoladi, yiring ajraladi, siydik ravon kelmaydi, kechalari og'rikli ereksiya kuzatiladi. Bemorning ahvoli aytarli o'zgarmaydi, ba'zan ishtaha pasayishi, darmonsizlik, bir oz temperatura ko'tarilishi mumkin. Tashqi (balanopostit) va ichki (prostatit, epididimit, ooforit, endometrit) jinsiy a'zolar, qovuq (sistit), bo'g'imlar (artrit) va boshqa yallig'lanishi mumkin. S. o'z vaqtida davolanmasa, boshqa a'zolariga tarqalishi, yillab cho'zilishi va nihoyat surunkali tuye olishi mumkin. Jinsiy aloqa, achchiq, sho'r ovqatlar yeyish, spirtli ichimliklarga ruju qilish oqibatida kasallik botbot qo'zib turadi. S. ning ko'p uchraydigan asoratlaridan prostatit va urug' pufaklarining yallig'lanishi erkakni jinsiy hayotga yaroqsiz qilib qo'yishi, shuningdek, bepushtlikka sabab bo'lishi mumkin. Bemor uzoq vaqt davolanishi lozim, ba'zan siydik chiqarish kanali torayganda operatsiya qilinadi. S. yuqumli bo'lgani uchun kasallik belgilari paydo bo'lishi bilanoq venerolog vrachga murojaat etish kerak. Bemor teri va venerik kasalliklar dispanserida davolanadi. Ba'zan davo paytida siydik kanalida og'riq, achishish, yiring kamayadi. Bemor o'zini sog'lom his qiladi va jinsiy aloqa qilaveradi, lekin organizmda hali gonokokklar bo'lishi mumkin. To'liq davolanmay jinsiy aloqa qiladigan bemorlar atrofdagilar uchun juda xavfli bo'lib, kasallikni boshqalarga yuqtiradi va turli noxush oqibatlariga sabab bo'ladi. Shuning uchun sog'aygan bemorlar bir necha marta lab. tekshiruvidan o'tkazilib, kasallik alomati topilmagach sog'lom hisoblanadi. S bilan og'rigan kishilarda



immunitet paydo bo'lmaydi, bir kishi S. bilan bir necha marta og'rishi mumkin (reinfeksiya). O'z vaqtida davo qilinsa, bemor butunlay sog'ayib ketadi.

S.ning oldini olishda tasodifiy jinsiy aloqadan saqlanish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, aholi o'rtasida teritanosil kasalliklariga oid suhbatlar o'tkazish hamda tarbiyaviy ishlar olib borish zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Erkinov Ilkhom Erkin Ogli. (2023). Life Safety and Civil Protection in Natural Emergencies. Eurasian Research Bulletin, Volume 17|February, ISSN: 2795-7365, 188-190.

2. Erkinov Ilxom Erkin o'gli: "Farmatsevtika muassasalarida sodir bo'ladigan baxtsiz xodisalar va kasb kasalliklarni o'rganish, hisobga olish tartibi"- HAVO HAJUMIDAN MUDOFAA QO'SHINLARI VA HARBIY HAVO KUCHLARI XABARNOMASI ILMIY-AXBOROT JURNALI. TAHRIRIYAT MANZILI: 180117, Qarshi shaxri, Jayxun kuchasi 54 uy O,,R OHABYu Ilmiy-uslubiy bo'limi. 1(2) 2022 y, 7-11 bet;

3. Эркинов И.Э. "Организация системы управления безопасностью деятельности в производственных учреждениях (компаниях)". HAVO HAJUMIDAN MUDOFAA QO'SHINLARI VA HARBIY HAVO KUCHLARI XABARNOMASI ILMIY-AXBOROT JURNALI. TAHRIRIYAT MANZILI: 180117, Qarshi shaxri, Jayxun kuchasi 54 uy O,,R OHABYu Ilmiy-uslubiy bo'limi. 1(3) 2022 y. 56- bet.